

XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI №07
(ishlarni bajarishga oid)

“29” iyun 2022-yil

Navoiy shahri

Xizmat ko'rsatish shaklida ro'yxatdan o'tgan **“QIZILQUM ZAR ZAMIN” MChJ** (bundan keyin matnda **“BAJARUVChI”** deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida faoliyat ko'rsatuvchi jamiyat rahbari **Vafoev Farrux Baxtiyorovich** bir tomondan va **Navoiy viloyat Maktabgacha ta'lim boshqarmasi** (bundan keyin matnda **“BUYuRTMACHi”** deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi boshliq **Tillaev Utkir Uktamovich** ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzishga kelishdilar.

1. ShARTNOMA PREDMETI

1.1 Mazkur shartnoma bo'yicha **“BAJARUVChI”** **“BUYuRTMACHi”**ga yuk avtomashinasi bilan avtotransportda tashish xizmati ko'rsatish, ya'ni yuklarni buyurtmachi buyurtmasiga binoan belgilangan manzilga yetkazish (keyingi o'rinlarda **“XIZMATLAR”** deb yuritiladi) xizmatini ko'rsatish, **“BUYuRTMACHi”** ushbu **“Xizmatlar”** ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1 “BUYuRTMACHi”ning huquqlari:

2.1.1. **“BAJARUVChI”**dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. **“BAJARUVChI”**dan **“Xizmatlar”** **“BUYuRTMACHi”**ning hisobiga boshqa transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. **“BAJARUVChI”**dan mazkur shartnomaga asosan beriladigan buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan **“Xizmatlar”** ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini **“BAJARUVChI”** dan talab qilish.

2.2 “BUYuRTMACHi” ning majburiyatlari:

2.2.1. **“Xizmatlar”** ga mazkur shartnomaning 3.1 - bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha haq to'lash.

2.3 “BAJARUVChI” quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Ko'rsatilgan **“Xizmatlar”** uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini **“BUYuRTMACHi”** dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan **“Xizmatlar”** ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini **“BUYuRTMACHi”** dan talab qilish.

2.4. “BAJARUVChI” quyidagilarga majbur:

2.4.1. **“BUYuRTMACHi”** ga mazkur shartnomaga muvofiq yoki **“BUYuRTMACHi”** tomonidan mazkur shartnomaning 4.6-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan buyurtmanomaga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda **“Xizmatlar”** ni ko'rsatish;

2.4.2. **“BUYuRTMACHi”** tomonidan belgilangan xizmatlarni 2022 yilning 12 iyul kuniga qadar tugatishi lozim.

3. ShARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi 229 474 115 so'm (Ikki yuz yigirma to'qqiz million to'rt yuz yetmish to'rt ming bir yuz o'n besh) so'mni tashkil etadi.

3.2. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun to'lov pul ko'chirish yo'li bilan oldindan umumiy so'mmaning 30 foizi ya'ni 68 842 234 (Oltmish sakkiz million sakkiz yuz qirq ikki ming ikki yuz o'ttiz to'rt) so'mni 5 ish kunida to'lash, qolgan qismini tashish xizmatlari bajarilgandan so'ng amalga oshiriladi.

4. ShARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.2. "Xizmatlar" ni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

4.3. "BUYuRTMACHi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Xizmatlar" ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.4. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assotimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar" ning o'rnini to'ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar" "BUYuRTMACHi" ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan "Xizmatlar" ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.5. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "BUYuRTMACHi" ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.6. Shartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "BUYuRTMACHi" ning buyurtmanomasida ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "BAJARUVChI" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi. Buyurtmanoma "Xizmatlar" ning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin mas'ul xodim (chopar) orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani mas'ul xodim (chopar) orqali qabul qilishda "BAJARUVChI" ning xodimi "BUYuRTMACHi" da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.7. "BUYuRTMACHi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "BAJARUVChI"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 3 kun oldin xabardor qiladi.

5. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI

5.1. Ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "BAJARUVChI" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilish hollari aniqlangan taqdirda "BAJARUVChI" ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi.

5.2. "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "BAJARUVChI" "BUYuRTMACHi" ga ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Xizmatlar"ning 10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

5.3. Xizmatlar ko'rsatilishi kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "BAJARUVChI" "BUYuRTMACHI"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmaslighi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.4. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "BUYuRTMACHI" "BAJARUVChI"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.5. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda taraflar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida javobgar bo'ladilar.

6. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar o'zaro hal etilmagan kelishmovchiliklar va nizolar yuzasidan bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Ushbu shartnoma ikkala tomondan imzolanib, muhrlanib, G'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va **2022-yil 31-dekabr**gacha amal qiladi.

7.2. Tomonlar o'rtasida munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

8. KORRUPSIYA GA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1 Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugagandan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2 Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'icha hamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini, (kelajakda bu turdagi xarakatlarni amalga oshirilishi mumkinligi haqida tassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4 Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi: a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarida qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tUSDagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5 Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarlariga) nisbatan quyidaagi harakatlarni amalga oshirishlari shart: - korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish; - ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; - ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish; - ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

8.6 . Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

8.7 Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 8.4- va 8.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilishi va tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI.

“BAJARUVCHI”

“QIZILQUM ZAR ZAMIN” MChJ

Manzili: Navoiy shahri, Me'mor MFY,
G'alab shoh ko'chasi, 198a-uy,
34-xonadon.

Telefon: 99-753-13-14

H.r: 20208000105040419001

Bank nomi: “Hamkorbank” chet el kapitali
ishtirokidagi ATB Navoiy filiali

MFO: 01064 STIR: 306252244

Rahbar:  F.B. Vafoev



“BUYURTMACHI”

“Navoiy viloyati Maktabgacha ta'lim boshqarmasi”

Manzili: Navoiy shahri, Shodlik ko'chasi 6-uy

Telefon: 79-220-12-88


H.r: 100021801240017091100251001

Bank nomi: Toshkent shahar Markaziy
bank XKKM

MFO: 00014. STIR: 305135104

Boshliq:  U.U. Tillayev



 V. Arnegol
22.06.2022.

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 109058 на приобретение Давлат МТТларига 2022-2023 куз киш даври учун кумир ёкилгисини ташиш

Способ проведения электронный

Дата 29.06.2022

Время рассмотрения 29.06.2022 15:06

Конкурсная комиссия Навоий вилоят Мактабгача таълим бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	TILLAYEV UTKIR UKTAMOVICH	Бошқарма бошлиғи	Навоий вилояти Мактабгача таълим бошқармаси
Секретарь комиссии	JURAYEVA GULNOZA ZOPIROVNA	Хисобчи	Навоий вилояти Мактабгача таълим бошқармаси
Член комиссии	KARIMOV SIROJIDDIN BAXRIDDINOVICH	Қурилиш, жиҳозлаш ва бинолардан фойдаланишни мувофиқлаштириш бўлими бошлиғи	Навоий вилояти Мактабгача таълим бошқармаси
Член комиссии	MIRZAYEV SHAVKAT SOBIROVICH	Иқтисодчи	Навоий вилояти Мактабгача таълим бошқармаси
Член комиссии	AXMEDOV HAMDULLA ABDINABIYEVICH	Юридик бўлим бошлиғи	Навоий вилояти Мактабгача таълим бошқармаси
Член комиссии	XOLOV RAXMON MARDONOVICH	Бош ҳисобчи	Навоий вилояти Мактабгача таълим бошқармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 29.06.2022 года № лота 109058.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 50.00 / Весовой коэф. ценовой части: 50.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по перевозке грузов
Подробное описание	Давлат МТТларига 2022-2023 куз киш даври учун кумир ёкилгисини ташиш
Количество товара	271 567.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	900.00
Стартовая сумма	244 410 300.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие

лы:

Критерий №1 Юк ташиш учун мулжалланган машиналар сони ва сифати

Тип: Текстовое значение

Описание: Камида 5 та ва барча техник холатлари соз, расмлари тулик булиши керак.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО КО'МИР ТА'МИНОТ	40	Камида 6 та ва барча техник холатлари соз, расмлари тулик булиши керак.	20	Экспертная		
"Konfayz-Lochin" MChJ	40	Хужжат илова килинди	30	Экспертная		
ООО QIZILQUM ZAR ZAMIN	40	229,474,115.00	30	Экспертная		
MCHJ GAVHAR 2017	40	Камида 5 та ва барча техник холатлари соз, расмлари тулик	30	Экспертная		

Критерий №2 Банкротлик, кредиторлик карздорликлари ва юк ташишни тугатиш аник вакти

Тип: Текстовое значение

Описание: Банкротлик, кредиторлик карздорликлари булмаслик керак, юк ташишни тугатиш аник вакти кафолатланган булиши керак

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО КО'МИР ТА'МИНОТ	30	Банкротлик, кредиторлик карздорликлари булмаслик керак, юк ташишни тугатиш аник вакти кафолатланган булиши керак	20	Экспертная		
"Konfayz-Lochin" MChJ	30	Хужжат илова килинди	15	Экспертная		
ООО QIZILQUM ZAR ZAMIN	30	229,474,115.00	25	Экспертная		
MCHJ GAVHAR 2017	30	Банкротлик, кредиторлик карздорликлари мавжуд эмас. Юк ташишни тугатиш аник вакти 15 кун эканлиги кафолатланади.	15	Экспертная		

Критерий №3 Хайдовчиларнинг стажи

Тип: Текстовое значение

Описание: Хайдовчиларнинг стажи камида 3 йил булиши лозим.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО КО'МИР ТА'МИНОТ	30	Хайдовчиларнинг стажи камида 3 йил булиши лозим.	20	Экспертная		
"Konfayz-Lochin" MChJ	30	Хужжат илова килинди	20	Экспертная		
ООО QIZILQUM ZAR ZAMIN	30	229,474,115.00	20	Экспертная		
MCHJ GAVHAR 2017	30	Хайдовчиларнинг стажи камида 3 йил	20	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО КО'МИР ТА'МИНОТ	244 410 300.00	244 410 300.00	23.06.2022 16:00:01	46.67
MCHJ GAVHAR 2017	244 410 300.00	228 116 280.00	27.06.2022 18:11:30	50.00
ООО QIZILQUM ZAR ZAMIN	244 410 300.00	229 474 115.00	27.06.2022 17:40:16	49.70
"Konfayz-Lochin" MChJ	244 410 300.00	228 116 280.00	27.06.2022 15:14:41	50.00

Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО КО'МИР ТА'МИНОТ	30	46.66667	76.66667
MCHJ GAVHAR 2017	32.5	50	82.5
ООО QIZILQUM ZAR ZAMIN	37.5	49.70414	87.20414
"Konfayz-Lochin" MChJ	32.5	50	82.5

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 109058 от 29.06.2022 года на приобретение Давлат МТТларига 2022-2023 куз киш даври учун кумир ёкилгисини ташиш определила победителем:

ООО QIZILQUM ZAR ZAMIN
306252244

и резервный исполнитель: "Konfayz-Lochin" MChJ (300380160)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	AXMEDOV HAMDULLA ABDINABIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	KARIMOV SIROJIDDIN BAXRIDDINOVICH	Согласен	
Председатель комиссии	TILLAYEV UTKIR UKTAMOVICH	Согласен	
Член комиссии	XOLOV RAXMON MARDONOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП